

“Sanoat ishlab chiqarish texnologiyalari”: kelgusi rejalar

Turin politexnika universiteti (Italiya) Rektori professor Gvido Sarakko boshchiligidagi delegatsiya 16 may kuni Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universitetiga tashrif buyurdi.

Delegatsiyani TTPU rektori Jamshid Inoyatkhodjaev kutib olib, keng muzokaralar olib borildi. Keyingi o‘quv yili rejalari, yangi “Sanoat ishlab chiqarish texnologiyalari” o‘quv yo‘nalishi ishga tushirish masalalarini muhokama qilindi.

professor Guido Sarakko TTPU talaba yoshlari va professor o‘qituvchilari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuv davomida “Sanoat ishlab chiqarish texnologiyalari” va universitetda mavjud yo‘nalishlarning hozirgi kundagi dolzarbligi, ahamiyati va imkoniyatlari to‘g‘risida suhbat qurdi. Ochiq muloqot shaklida o‘tgan uchrashuvda, qatnashchilar o‘zlarining qiziqtirgan savollariga batafsil javob oldilar.

